

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi PQ–330-sonli “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga hamda Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) tomonidan 2019-yil 27-sentabrda e‘lon qilingan Umumiy xaridlar e‘loniga muvofiq, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida mahalliy yo‘l tarmog‘ini tiklash” loyihasi amalga oshirilmoqda.**

### **Loyihaning manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (SEP)**

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati OIIBdan “Qoraqalpog‘iston va Xorazmda mahalliy yo‘l tarmog‘ini rekonstruksiya qilish” loyihasini moliyalashtirish uchun investitsiya kreditini olishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Mazkur Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (SEP) Qoraqalpog‘iston va Xorazmdagi loyiha doirasida “Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi (ESMP)”ning bir qismi sifatida ishlab chiqilgan.

Loyihani amalga oshirish muddati 3 yil qurilish (2025–2027-yillar) va 22 yil ekspluatatsiya (2028–2049-yillar) bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Loyiha uchta komponentdan iborat. OIIB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyiha doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida (11 ta tumanda jami 328 km uzunlikdagi 23 yo‘l uchastkasi) va Xorazm viloyatida (9 ta tumanda jami 188 km uzunlikdagi 16 yo‘l uchastkasi) jami 516 km mahalliy yo‘llarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, loyiha ijrochilari salohiyatini oshirish, raqamli geokengaytirilgan platformani ishlab chiqish, va ayollar va yoshlar salohiyatini oshirish dasturini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Loyiha uchun Ijrochi tashkilot sifatida Avtomobil yo‘llar qo‘mitasi mas‘ul bo‘lib, u davlat tashkilotlari va yuqori darajadagi qaror qabul qiluvchi organlar bilan umumiy muvofiqlashtirish, shuningdek, OIIB va boshqa hamkorlar bilan aloqani ta‘minlaydi.

Avtoyo‘linvest agentligi (AYA) – Yo‘llar qo‘mitasi tarkibidagi bo‘lim – loyiha bo‘yicha umumiy boshqaruv, xaridlarni nazorat qilish, ish rejaları va ijro holatini monitoring qilish uchun mas‘ul.

Avtomobil yo‘llar qo‘mitasi tarkibida loyiha doirasida AYAda Loyihani amalga oshirish guruhi (LAOG) tashkil etilgan. Bugungi kunga kelib, loyiha koordinatori, xaridlar bo‘yicha mutaxassis, hamda Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo‘yicha mutaxassis (E&S) ishga qabul qilingan. Ijrochi organ — Avtomobil yo‘llar qo‘mitasi tarkibidagi Avtoyo‘linvest agentligi hisoblanadi.

LAOG loyiha doirasida SEP va Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmini (GRM) qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida amalga oshirish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qiladi.

Loyiha OIIBning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosati bo‘yicha “B” toifasiga kiradi. Bu shuni anglatadiki, uning potentsial salbiy ta‘sirlari chegaralangan, faqat mahalliy darajada yuzaga chiqadi va odatdagi E&S xavf-xatarlarni yumshatish choralariga javoban boshqarilishi mumkin.

Loyiha hududi hozirda yigirma tumanni o'z ichiga oladi. Qoraqalpog'istonda: Qanliko'l, Kegeyli, Taxtako'pir, Shumanay, Dovkara-DFH-Borshetov, Amudaryo, Beruniy, Nukus, Qorao'zak, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari. Xorazmda: Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Xiva, Xazarasp, Shovot, Yangiariq va Yangibozor tumanlari. Shu sababli manfaatdor tomonlar soni yuqori bo'lib, loyiha ta'sir qiluvchi barcha aholi punktlari va tashkilotlarni qamrab oladi.

SEPning asosiy maqsadi — loyiha davomida manfaatdor tomonlar bilan tizimli va samarali hamkorlikni ta'minlashdir. Reja O'zbekiston milliy qonunchiligi va OIIBning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan.

Konsultant tomonidan loyiha hududida aniqlangan manfaatdor tomonlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi. 2024-yil avgust va sentabr oylarida mintaqaviy va tuman Avtomobil yo'llar qo'mitasi bo'linmalari hamda yo'l xizmatlari vakillari bilan, 11 ta ochiq jamoatchilik uchrashuvi va fokus-guruh muhokamalari o'tkazildi. Uchrashuvlarda loyiha maqsadlari va rejalashtirilgan faoliyatlar taqdim etildi, asosiy muhokama mavzulari esa loyiha muddatlari, dizayn va yo'l uchastkalari bo'ldi.

Manfaatdor tomonlarni aniqlashda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar, loyiha hujjatlari, konsultant tahlillari hamda joylarga borib ko'rish asos qilib olindi. ESMP doirasida jami 13 ta manfaatdor guruh aniqlandi.

ESMP va SEP hujjatlari ochiq e'lon qilinadi, xususan, mahalliy NNTlar va internet orqali. Ularning qisqacha mazmuni ingliz, o'zbek va rus tillarida nashr etiladi.

LAOGning E&S mutaxassisi zaif va ijtimoiy jihatdan himoyasiz guruhlardan kelayotgan fikr-mulohazalarni monitoring qiladi va zarur hollarda alternativ yondashuvlarni taklif qiladi. Loyiha to'g'risidagi ma'lumot va fikr bildiruv shakllari internet orqali taqdim etiladi, bu yoshlarning ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

LAOG OIIB siyosati va O'zbekiston qonunchiligi asosida loyiha darajasidagi Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (GRM) tashkil qiladi. Ushbu GRM loyiha ijtimoiy va ekologik ta'siri, hamda muhokama va ochiqlik jarayonlaridan norozi shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Loyihaning 3.1-subkomponenti doirasida raqamli geokengaytirilgan platforma ishlab chiqiladi, bu zamonaviy GIS veb-platforma shaklida bo'lib, shikoyatlarni ro'yxatga olish va kuzatishni o'z ichiga oladi. Bu LAOG, muvofiqlashtiruvchi tashkilot va Avtomobil yo'llar qo'mitasi uchun real vaqt rejimida shikoyatlarni boshqarish imkonini beradi.

2025-yil 1-choragida, LAOG tarkibida quyidagi a'zolaridan iborat Markaziy shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi (GRC) tuziladi:

- Loyiha koordinatori, LAOG – Rais
- E&S mutaxassisi, LAOG – A'zo
- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hukumati bosh mutaxassisi – A'zo
- Yer uchastkalarini olish va kompensatsiya muvofiqlashtirish bo'limi rahbari – A'zo

- Qoraqalpog‘iston va Xorazm magistral yo‘llari boshqarmasi axborot xizmati xodimi – A‘zo

OIIB PPM – Loyihadan ta’sirlangan shaxslar uchun mexanizm mavjud. Agar loyiha darajasidagi GRM va OIIB boshqaruvi orqali masala hal qilinmasa, ta’sirlangan ikki yoki undan ortiq shaxs OIIBning PPM tizimiga shikoyat yuborishi mumkin. LAOG bu tizim to‘g‘risidagi ma’lumotni o‘z veb-sayti va manfaatdor tomonlar platformasi orqali e’lon qiladi.

LAOG GRM to‘g‘risidagi ma’lumotni rasmiy veb-saytida e’lon qiladi. Bu ma’lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: joylardagi va LAOG darajasidagi GRClarning aloqa ma’lumotlari, murojaat yo‘llari va GRC a’zolari ro‘yxati.

LAOG E&S mutaxassisi SEPni doimiy ravishda yangilab boradi (qurilishdan oldin, davomida va undan keyin) quyidagilarni ta’minlash uchun:

- Har bir manfaatdor guruh uchun alohida yondashuv va axborot yetkazish uslublarini yangilash;
- Konsultatsiya o‘tkazish chastotasini qayta ko‘rib chiqish;
- Shikoyatlar bilan ishlash samaradorligini tahlil qilish;
- Manfaatdor tomonlar dolzarbligini qayta baholash va zarur o‘zgarishlarni amalga oshirish.